



TOSHKENT SHAHARIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar - iyun*



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **13 437** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyulga nisbatan **2 797** taga kamaygan (o'sish sur'ati **82,8%**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **161** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **13 276** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- iyun oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **35 337,5** mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **111,7 %** ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **14820,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **124,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **20 517,2** mlrd. so'mni (o'sishsur'ati **117,6 %**), shundan uyushma-gan savdo tovar aylanmasi **885,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **112,9 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	35 337,5	111,7	14 820,3	124,4	20 517,2	117,6
<i>tumanlar:</i>						
Ucntepa	3 136,3	101,4	546,7	110,5	2 589,6	112,8
Bektemir	1 321,2	112,7	231,8	80,9	1 089,5	139,2
Yunusobod	3 920,6	102,2	1 778,6	114,7	2 142,0	106,0
Mirzo-Ulug'bek	2 510,9	113,1	1 132,3	130,6	1 378,5	115,2
Mirobod	2 711,3	115,6	1 463,0	123,9	1 248,3	121,3
Shayxontohur	3 711,8	120,2	2 033,2	148,3	1 678,7	110,6
Olmazor	2 773,2	104,5	1 178,9	100,1	1 594,3	122,1
Sergeli	1 808,8	123,2	1 022,0	141,1	786,8	119,7
Yakkasaroy	3 381,7	120,0	1 428,3	163,7	1 953,4	113,5
Yashnobod	3 003,9	112,7	1 200,2	121,5	1 803,7	121,5
Yangihayot	485,6	125,8	250,4	156,3	235,2	117,9
Chilonzor	6 572,3	111,5	2 555,0	114,3	4 017,4	124,2

2023- yilning yanvar – iyun oylarida 2022- yilning yanvar- iyun oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**125,8%**), Sergeli (**123,2%**), Yakkasaroy (**120,0 %**) va Shayxontohur (**120,2%**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar - iyun, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **115,7 %** ni yoki **26 365,0** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar – iyun oylari)



2023- yilning yanvar – iyun oyida o'sish sur'ati 111,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **18,6 %** bilan **6 572,3 mlrd.** so'mni tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,4 %** bilan **485,6 mlrd.** so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **20 517,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – iyun oylariga nisbatan **117,6** % ga kao'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **58,1** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – iyun oylariga nisbatan **124,4** % ga o'sdi va **14 820,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **41,9** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Toshkent sahar	41,9	58,1
Ushtepa	17,4	80,8
Bektemir	17,5	82,5
Yunusobod	45,4	54,6
Mirzo-Ulug'bek	45,1	54,9
Mirobod	54,0	46,0
Shayxontohur	54,8	45,2
Olmazor	42,5	57,5
Sergeli	56,5	43,5
Yakkasaroy	42,2	57,8
Yashnobod	40,0	60,0
Yangihayot	51,6	48,4
Chilonzor	38,9	61,1

■ 2 ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**11,4** %), Uchtepa (**7,3** %) va Yunusobod (**6,1** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **41,9** % ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (**7,2** %), Shayxontohur (**5,8** %), Yunusobod (**5,0** %), Mirobod (**4,1** %) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Toshkent shahar	11 866,2	108,2
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	10 627,9	98,9
Bektemir	23 179,5	104,0
Yunusobod	10 613,4	99,8
Mirzo-Ulug'bek	7 723,3	110,0
Mirobod	18 051,1	113,1
Shayxontohur	10 259,4	118,3
Olmazor	6 976,6	101,9
Sergeli	11 056,0	113,2
Yakkasaroy	26 174,1	115,8
Yashnobod	10 283,7	108,3
Yangihayot	2 959,0	117,9
Chilonzor	24 083,3	109,5

2023- yilning yanvar-iyun holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 11 866,2 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,2 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (**26 174,1** ming. so'm), Bektemir (**23 179,5** ming. so'm) va Chilonzor (**24 083,3** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Toshkent shahri bo'yicha 2023 - yilning yanvar - iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **885 540,5** mln. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan **2,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **793 982,9** mln. so'mni (**127,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **31 811,4** mln. so'mni tashkil etdi (**106,5 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi ulushi, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar- iyun oylariiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar.	885 540,5	112,9	793 982,9	127,9	91 557,7	126,8
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	81 135,7	105,8	92 235,1	3,1 marta	-	-
Bektemir	239 958,1	2,1 marta	192 639,3	190,5	91509,4	126,7
Yunusobod	96 840,9	102,5	132 426,6	96,1	-	-
Mirzo-Ulug'bek	124 999,3	153,7	52 181,4	50,0	-	-
Mirobod	40 314,1	91,2	35 447,2	4,7 marta	-	-
Shayxontohur	93 813,0	149,2	135 079,7	150,1	-	-
Olmazor	25 983,1	78,6	15 246,4	57,1	48,4	161,2
Sergeli	33 132,8	95,3	27 616,0	122,7	-	-
Yakkasaroy	38 446,4	66,4	14 051,4	58,8	-	-
Yashnobod	66 611,1	64,4	18 213,2	31,3	-	-
Yangihayot	3 330,5	50,2	-	-	-	-
Chilonzor	40 975,5	55,3	5 081,1	26,3	-	-

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar - iyun oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **793 982,8** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**2345012,2** mln. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	345012,2
	Non va non mahsulotlari	62564,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	86549,4
	Tovuq go'shti	89765,8
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	49418,7
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	22175,3
	Tuxum	26689,8
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	1 011,5
	Ziravorlar	57122,7
	Tuzlamalar	21502,8
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	12215,2
	Nooziq-ovqat tovarlari	19955,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar – iyun oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **91 557,5** mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **76 091,2** mln.so‘m, qo‘y va echkilar – **13 374,2** mln. so‘mni, otlar – **2 043,7**mln. so‘mni, parrandalar – **48,5** mln. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	61 167,2
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	6228,2
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	8695,8
	Qo‘ylar	12956, 0
	Otlar	2043,7
	Echkilar	418,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	26,7
	Tovuqlar	21,8
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **4 475** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – iyul holatiga nisbatan **1 817** taga kamaygan va o'sish sur'ati **71,1 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **3** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **4 472** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar – iyun oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi 3 376,5 mlrd.ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,0 %** ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining **60,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	3 376,5	109,0	1 209,4	116,3	2 167,1	129,4
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	94,3	120,4	0,4	40,1	93,9	149,2
Bektemir	65,4	104,1	33,3	129,6	32,1	106,3
Yunusobod	458,4	104,7	162,0	134,1	296,4	114,9
Mirzo-Ulug'bek	361,4	103,5	22,7	104,5	338,7	127,2
Mirobod	255,2	101,2	41,7	131,0	213,5	119,2
Shayxontohur	848,2	108,8	606,2	105,5	242,0	145,1
Olmazor	203,4	125,0	12,8	55,9	190,6	167,6
Sergeli	258,6	142,5	204,6	152,8	54,0	139,4
Yakkasaroy	295,8	102,4	20,1	112,6	275,7	125,0
Yashnobod	243,6	108,9	74,4	107,1	169,2	134,9
Yangihayot	52,5	100,4	0,0	-	52,5	123,9
Chilonzor	239,8	104,7	31,2	156,3	208,6	122,6

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **12 649,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **106,8 %** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **5 507,9** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **115,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **7 141,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **106,0 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	12 649,1	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	414,2	3,3
Bektemir	560,1	4,4
Yunusobod	1 250,8	9,9
Mirzo-Ulug'bek	581,7	4,6
Mirobod	884,1	7,0
Shayxontohur	1 203,8	9,5
Olmazor	119,2	0,9
Sergeli	4 444,7	35,1
Yakkasaroy	1 176,7	9,3
Yashnobod	945,6	7,5
Yangihayot	438,1	3,5
Chilonzor	629,9	5,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**4 444,7** mlrd. so'm), Yunusobod (**1 250,8** mlrd. so'm) va Shayxontohur (**1203,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Toshket shahar bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **68 965,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **110,4%** ga o'sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **45 395,4** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,8 %** ga to'g'ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **65,8 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Sergeli (**26,5b.**), Yashobod (**24,1b.**) va Yangihayot (**20,6b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **15591** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyul holatiga nisbatan **521** taga kamaygan, o'sish sur'ati **96,8 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **248** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **15 343** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	68 965,1	110,4	23 569,7	125,6	45 395,4	103,8
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	4 254,5	104,8	362,7	127,9	3 891,8	103,1
Bektemir	796,1	111,4	58,3	13,1 b.	737,8	104,0
Yunusobod	5 881,9	108,9	1 853,4	115,1	4 028,5	106,3
Mirzo-Ulug'bek	5 836,1	102,0	1 305,3	107,8	4 530,8	100,4
Mirobod	7 552,8	106,7	1 410,4	128,3	6 142,3	102,7
Shayxontohur	4 058,9	115,0	1 047,6	129,7	3 011,3	110,6
Olmazor	10 403,0	109,8	4 482,6	110,4	5 920,3	109,3
Sergeli	3 121,0	126,5	1 522,6	2,2 marta	1 598,4	90,0
Yakkasaroy	8 173,7	106,7	3 382,2	133,0	4 791,5	93,6
Yashnobod	9 593,9	124,1	5 347,6	144,9	4 246,3	105,1
Yangihayot	623,3	120,6	185,5	158,7	437,8	109,4
Chilonzor	8 669,9	106,6	2 611,4	98,6	6 058,5	110,5



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-202-88-21 (20)**